

ABU ALI IBN SINO VA JARROHLIK SOHASIDAGI MEROSI ZAMONAVIY
JAMIYATIMIZDAGI JARROHLIK
Umarova Musharraf Yunusaliyevna

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyat instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasи asissentи.

To'lqinaliyeva Moxinur

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyat instituti Davolash ishi yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15512186>

Annotatsiya. Abu Ali ibn Sino tomonidan ishlab chiqilgan jarrohlik tamoyillari va texnikalari zamonaviy jarrohlikning shakllanishiga kuchli asos bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu maqolada Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asaridagi jarrohlik bilan bog‘liq bilimlari, ularning nazariy va amaliy ahamiyati hamda hozirgi davr tibbiyotida tutgan o‘rni tahsil etilgan. Maqola tibbiyat tarixi, jarrohlik amaliyoti va ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanuvchilar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: Abu Ali ibn Sino, jarrohlik merosi, Tib qonunlari, zamonaviy jarrohlik, tibbiyat tarixi.

ABU ALI IBN SINO AND HIS LEGACY IN SURGERY. SURGERY IN OUR
MODERN SOCIETY

Abstract. The surgical principles and techniques developed by Abu Ali ibn Sina served as a strong foundation for the formation of modern surgery. This article analyzes Ibn Sina’s knowledge of surgery in his work "The Canons of Medicine", their theoretical and practical significance, and their place in modern medicine. The article is intended for those involved in the history of medicine, surgical practice, and scientific research.

Keywords: Abu Ali ibn Sina, surgical heritage, Canons of Medicine, modern surgery, history of medicine.

АБУ АЛИ ИБН СИНО И ЕГО НАСЛЕДИЕ В ХИРУРГИИ ХИРУРГИЯ В НАШЕМ
СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. Хирургические принципы и методы, разработанные Абу Али ибн Сино, послужили прочной основой для формирования современной хирургии. В статье анализируются познания Ибн Сины в области хирургии в его труде «Каноны врачебной науки», их теоретическое и практическое значение, а также их место в современной медицине. Статья предназначена для тех, кто занимается историей медицины, хирургической практикой и научными исследованиями.

Ключевые слова: Абу Али ибн Сина, хирургическое наследие, медицинские каноны, современная хирургия, история медицины.

Kirish

Abu Ali ibn Sino (980–1037) - buyuk alloma, tabib, faylasuf, matematik, fizik va shoir bo‘lib, islom olamining eng mashhur tabiblaridan biridir. U G‘arbda “Avicenna” nomi bilan tanilgan. Ibn Sino 450 dan ortiq ilmiy asarlar yozgan bo‘lib, ularning 40 dan ortig‘i tibbiyotga bag‘ishlangan. “Tib qonunlari” asari (Al-Qanun fi’t-Tibb): Ibn Sinoning eng mashhur asari bo‘lib, bu asar 12-asrdan 17-asrgacha Yevropa universitetlarida asosiy tibbiy qo‘llanma sifatida o‘qitilgan. Unda anatomiya, farmakologiya, terapiya va albatta jarrohlikka oid bo‘limlar mavjud. Ibn Sino jarrohlikni mustaqil fan sifatida qaragan. U infektsiya xavfini kamaytirish, asoratlarni oldini olish usullarini bayon qilgan. U tananing ichki a’zolari tuzilishi va ularning kasalliklarini batafsil tavsiflagan.

Qon ketishini to‘xtatish usullari, jarrohlikdan keyingi parvarish, tikuv materiallari va yaralarni bog‘lash texnikasi haqida ma’lumotlar bergan. Abstsess (og‘riqli yiring to‘plami) va o‘simalarni kesib olib tashlashga oid jarrohlik usullarini bayon qilgan. Asbob-uskunalar: U o‘z asarlarida o‘sha davr uchun ilg‘or bo‘lgan bir nechta jarrohlik asboblari va ularning ishlatilish yo‘llarini tasvirlagan. Masalan, skalpel, kleyamp, ignalar va boshqalar. Anesteziya (og‘riqsizlantirish): Ibn Sino bemorlarni jarrohlik amaliyoti oldidan narkotik moddalardan foydalanib, og‘riqni kamaytirish yoki yo‘qotish g‘oyasini ilgari surgan. Bu zamonaviy anesteziyaning ilk nazariy asosi sifatida qaraladi. Gigiyyena va aseptika: U jarrohlikdan oldin va keyin qo‘llarni tozalash, asboblarni yuvish va dezinfektsiya qilish zarurligini urg‘ulagan - bu esa zamonaviy aseptika konsepsiyasiga juda yaqin. Zamonaviy tibbiyotga ta’siri: Bugungi kunda ham Ibn Sinoning qarashlari jarrohlikda, ayniqla tabiiy davo, gigiyena va diagnostikada muhim o‘rin tutadi. U o‘z davrida amaliyotda bo‘lgan jarrohlik yondashuvlariga ilmiy asoslar bergen.

Tibbiyot fani tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk allomalardan biri Abu Ali ibn Sino bo‘lib, u nafaqat falsafa, fizika va kimyo sohalarida, balki amaliy tibbiyot, xususan jarrohlik sohasida ham chuqr iz qoldirgan. Ibn Sinoning qarashlari bugungi jarrohlikning nazariy asoslari, tashxis qo‘yish, asoratlarning oldini olish, shuningdek, inson organizmining aniq anatomik tuzilishini tushunishda katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi zamonaviy jarrohlik esa texnologik taraqqiyot bilan uyg‘unlashgan holda o‘zining eng yuqori cho‘qqilariga chiqmoqda.

Ibn Sino o‘zining mashhur asari "Al-Qonun fi-t-tibb"da jarrohlikni tibbiyotning alohida va juda muhim sohasi sifatida ko‘rsatadi. U nafaqat jarrohlik operatsiyalarining ahamiyatini, balki ularning bajarilish texnikasini, gigiyenik shart-sharoitlarini, vaqtiga vaqtiga bilan yuzaga keladigan asoratlarni oldindan ko‘ra bilishni ham nazariy jihatdan asoslab bergen. Ibn Sino jarrohlikni konservativ davolash usullari samara bermaganda murojaat qilinadigan muhim vosita deb ta’riflaydi. Buyuk alloma o‘z davrining eng ilg‘or bilimlariga asoslanib, turli jarrohlik asboblari – pichoq, sanchqich, klesh va qisqichlar haqida batafsil ma’lumot beradi. U bu asboblarning har birining aniq funksiyasini, operatsiya paytida ularni qanday ishlatish lozimligini yozib qoldirgan. Ibn Sino suyaklarning singan joylarini bog‘lash, yiringli abssesslarni ochish, ko‘z kasalliklarini davolashda jarrohlikning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Ayniqsa, u operatsiya oldi va keyingi gigiyena qoidalarini aniq belgilab bergani bilan o‘z davri uchun beqiyos xizmat qilgan.

Bugungi kunda jarrohlik sohasida foydalanimayotgan ko‘plab fundamental tamoyillar – masalan, aseptika va antiseptika, aniq tashxis, reabilitatsiya muhimligi kabi konsepsiylar Ibn Sino ta’limotining ilmiy ildizlariga borib taqaladi. Garchi zamonaviy jarrohlik texnologik jihatdan ancha ilg‘or bosqichda bo‘lsa-da, uning zamini o‘rta asr Sharq tabobati, xususan Ibn Sino ilmiy merosi bilan bog‘liq. Ko‘plab jahon universitetlarida uning asarlari hali-ham o‘rganiladi, ayrim tamoyillari esa zamonaviy jarrohlik metodikalari bilan uyg‘unlashgan

Bugungi kunda jarrohlik sohasi tibbiyot fanining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Endoskopik, robotik, lazerli va minimal invaziv jarrohlik usullari orqali murakkab operatsiyalar og‘riqsiz, kam travmatik va qisqa tiklanish davrida amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ham jarrohlik sohasida katta yutuqlarga erishilmoqda: xorijdan zamonaviy uskunalar olib kelinmoqda, mutaxassislar xorijda malaka oshiryapti, yosh kadrlar esa yetuk mutaxassislardan amaliyot o‘rganmoqda.

Xulosa

Abu Ali ibn Sinoning jarrohlikka oid ishlari nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi kunda ham ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, zamonaviy tibbiyotda ilm, tajriba va etik qadriyatlarining uyg‘unlashuviga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy jamiyatda jarrohlik - tibbiy taraqqiyotning yuksak cho‘qqisi bo‘lib, inson hayoti va salomatligini saqlashda eng muhim va ishonchli yo‘llardan biri hisoblanadi.

Foydalangan Adabiyotlar Ro‘yxati

1. "Jarrohlik - Vikipediya"

2. "Og'iz bo'shlig'i jarrohligi, stomatologik implantologiya va - Sammu.uz"
3. "Jarrohlik xizmatlari Toshkentda va O'zbekistonda"
4. "Jarrohlik kafedrasi - Tipme.uz" "Jarrohlik Toshkentda - Med24"
5. "Toshkent xirurgik klinikalari va tibbiy markazlari.
6. Umarova, M. (2023). TEMURIY MALIKA GAVHARSHODBEGIM TUG'ILGAN OILA VA UNING AMIR TEMUR DAVRIDAGI HAYOTI. *Farg'ona davlat universiteti*, (6), 70-70.
7. Yunusaliyevna, U. M. (2024). AYOLLAR GINEKOLOGIYASI, HAYZ SIKLI UNDAGI KASALLIKLARNI DAVOLASH USULLARI VA ULARNI DAVOLASHDAGI HOZIRGI ZAMON INNOVATSIYALARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 44(7), 142-147.
8. Ҳасанов, М. Н., Бошмонов, С. У., & Жонибеков, Т. О. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЛМ-ФАНЛАР ТАСНИФИДА АҲЛОҚИЙ ВА ДИНИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 608-613.
9. Umarova, M. Y. (2024). Onalar salomatligi-kelajak poydevori. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 7(5), 124-127.
10. Umarova, M. (2024). TEMURIYLAR DAVLATIDA GAVHARSHODBEGIMNING BUNYODKOR SHAXS SIFATIDA TUTGAN O'RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 21-24.